

**INTELLEKTUAL MULKDA SHARTNOMAVIY MUNOSABATLAR TUSHUNCHASI,
HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI****Rayimov Shohzod Ibrohim o'g'li**

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti biznes huquqi yo'nalishi magistri.

e-mail: shohzodrayimov01@gmail.com**<https://doi.org/10.5281/zenodo.19581991>**

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada intellektual mulk sohasida vujudga keladigan shartnomaviy munosabatlarning tushunchasi, mazmuni va huquqiy tabiati har tomonlama tahlil qilinadi. Intellektual mulk obyektlaridan foydalanishda qo'llaniladigan asosiy shartnoma turlari, jumladan litsenziya shartnomalari, mutlaq huquqlarni o'tkazish shartnomalari, mualliflik shartnomalari hamda franshizing shartnomalarining o'ziga xos jihatlari yoritib beriladi.

Shuningdek, shartnomaviy mexanizmlarning huquq egalari manfaatlarini himoya qilishdagi o'rni, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada milliy qonunchilik va xalqaro huquq normalari tahlili asosida ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: intellektual mulk, shartnomaviy munosabatlar, litsenziya shartnomasi, mualliflik huquqi, sanoat mulki, patent, franshiza, huquq egasi.

Аннотация. В данной научной статье всесторонне анализируются понятие, содержание и правовая природа договорных отношений в сфере интеллектуальной собственности. Рассматриваются основные виды договоров, применяемых при использовании объектов интеллектуальной собственности, в том числе лицензионные договоры, договоры об отчуждении исключительных прав, авторские договоры и договоры коммерческой концессии.

Особое внимание уделяется роли договорных механизмов в обеспечении прав и законных интересов правообладателей, а также их значению для развития инновационной деятельности и экономики знаний. В статье проводится анализ национального законодательства и международных правовых норм, формулируются научные выводы и практические рекомендации по совершенствованию договорных отношений в сфере интеллектуальной собственности.

Ключевые слова: интеллектуальная собственность, договорные отношения, лицензия, авторское право, патент, исключительное право, франчайзинг.

Abstract. This scientific article provides a comprehensive analysis of the concept, content, and legal nature of contractual relations in the field of intellectual property. The study examines the main types of contracts used in the exploitation of intellectual property objects, including license agreements, assignment of exclusive rights, copyright contracts, and franchise agreements.

Special attention is paid to the role of contractual mechanisms in ensuring the protection of the rights and legitimate interests of right holders, as well as their importance for the development of innovation and the knowledge-based economy. The article analyzes national legislation and international legal standards and offers scientific conclusions and practical recommendations for improving contractual relations in the field of intellectual property.

Keywords: intellectual property, contractual relations, license agreement, copyright, patent, exclusive rights, franchising.

Kirish

Hozirgi globallashuv, raqamli texnologiyalar va bilimlar iqtisodiyoti sharoitida intellektual mulk obyektlari jamiyat taraqqiyotining strategik resursiga aylanib bormoqda. Fan, texnika, adabiyot, san'at va innovatsion faoliyat natijalari nafaqat madaniy, balki muhim iqtisodiy qiymatga ham ega. Shu bois intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish, ulardan foydalanishni tartibga solish va iqtisodiy muomalaga kiritish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Intellektual mulk huquqlarining amalda ro'yobga chiqishi, asosan, shartnomaviy munosabatlar orqali ta'minlanadi. Aynan shartnomalar huquq egasi va foydalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlab, intellektual faoliyat natijalaridan qonuniy va samarali foydalanish imkonini yaratadi. Shu nuqtai nazardan, intellektual mulkda shartnomaviy munosabatlarning mohiyati va ahamiyatini ilmiy tahlil qilish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi paytda intellektual mulk huquqini himoya qilish bo'yicha yangi qonunlar qabul qilish yoki qonunchilikni hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib takomillashtirish milliy iqtisodiyotning rivojlanishi, shu o'rinda, mamlakatimizning intellektual mulk obyektlari ishlab chiqarishi va shuningdek, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda zarur omillardan biri hisoblanadi. Muhtaram Prezidentimiz aytganlaridek: "Intellektual mulk muhofazasini kafolatlay olsak, bu ham biz qurmoqchi bo'lgan uchinchi Renessansga mustahkam poydevor bo'ladi"¹. Jahon iqtisodiy integratsiyasi sharoitida intellektual mulk huquqlarining ishonchli himoyasini ta'minlash har qanday davlatning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, fan, texnika, san'at va innovatsion sohalarning jadal rivojlanishi davrida mualliflik huquqi, patent, savdo belgisi, sanoat namunasi va boshqa intellektual mulk obyektlarini huquqiy jihatdan himoya qilish masalasi global miqyosda alohida dolzarblilik kasb etmoqda.

Intellektual mulkda shartnomaviy munosabatlar tushunchasining nazariy asoslari

Intellektual mulkda shartnomaviy munosabatlar tushunchasi fuqarolik huquqining umumiy qoidalari hamda maxsus intellektual mulk qonunchiligi normalari bilan chambarchas bog'liqdir. Fuqarolik huquqida shartnoma taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi asosiy huquqiy vosita sifatida e'tirof etiladi.

Intellektual mulkda shartnomaviy munosabatlar — bu intellektual mulk obyektlari (mualliflik huquqi, patent, tovar belgisi va boshqalar) bilan bog'liq huquqlarni yaratish, foydalanish, berish yoki himoya qilish jarayonida taraflar o'rtasida tuziladigan huquqiy kelishuvlar tizimidir. **Intellektual mulkda** shartnomalar taraflar o'rtasida muayyan huquq va majburiyatlarni vujudga keltirish, o'tkazish, vaqtinchalik yoki cheklangan tarzda foydalanish hamda ulardan foydalanish shartlarini belgilashga xizmat qiladi.

Mazkur munosabatlarning o'ziga xos jihati shundaki, shartnoma predmeti moddiy buyum emas, balki nomoddiy, ya'ni intellektual faoliyat natijasidir. Bu esa shartnomaviy munosabatlarni tartibga solishda alohida huquqiy yondashuvni talab etadi.

Intellektual mulk sohasidagi shartnomalarning huquqiy tabiati

Intellektual mulk sohasidagi shartnomalar fuqarolik-huquqiy shartnomalarning mustaqil va murakkab turi hisoblanadi. Ularning huquqiy tabiati quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

Birinchidan, shartnoma predmeti nomoddiy bo'lib, u moddiy shaklda mavjud emas, balki huquq shaklida ifodalanadi.

Ikkinchidan, bunday shartnomalar mutlaq huquqlar bilan bog'liq bo'lib, ularni uchinchi shaxslar hurmat qilishi shart.

Uchinchidan, ko'plab intellektual mulk shartnomalari majburiy davlat ro'yxatidan o'tkazilishini talab qiladi.

To'rtinchidan, bunday shartnomalarni tuzishda uning yozma shakliga amal qilmaslik shartnomaning haqiqiy emasligiga olib keladi.

Shu jihatlar intellektual mulk shartnomalarini umumiy fuqarolik shartnomalaridan ajratib turadi va ularni alohida huquqiy institut sifatida ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 53-moddasida "Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi" deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi "Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-221-son qaroriga muvofiq intellektual mulkni ishonchli himoya qilish, intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish hamda kontrafakt mahsulotlarga samarali qarshi kurashish mexanizmi yaratildi. Jumladan, qabul qilingan Qaror bilan birga kelgusi 2 yilga mo'ljallangan ushbu yo'nalishda 7 ta ustuvor yo'nalish va 35 ta tadbirdan iborat "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan.

Ayniqsa, O'zbekiston tarixida birinchi bor 2022 — 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasining qabul qilinishi intellektual mulkning huquqiy maqomi oshishiga va moddiy mulklar kabi davlat tomonidan qat'iy himoya qilinishini belgilab berdi.

Ma'lumki, milliy qonunchilikka ko'ra intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni o'tkazish to'g'risidagi va ulardan foydalanish bo'yicha litsenziya shartnomalari vakolatli organ (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi)da rasmiy ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Ayni ushbu qoida intellektual mulk sohasiga doir mamlakatimiz qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2022-yil 31-martda tasdiqlangan 8-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Qoidalarda ham o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasining «Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida»gi Qonuni 11-moddasi, «Seleksiya yutuqlari to'g'risida»gi Qonuni 38-moddasi, «Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida»gi Qonuni 30-moddasi, «Integral mikrosxemalar topologiyalarining huquqiy muhofazasi to'g'risida»gi Qonuni 15-moddasi, «Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy muhofazasi to'g'risida»gi Qonuni 9-moddasiga muvofiq quyidagi shartnomalar Departamentda ro'yxatga olinadi:

- ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutug'iga berilgan patentni berish to'g'risidagi shartnoma;

- ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutug'idan foydalanish to'g'risidagi litsenziya shartnomasi (sublitsenziya shartnomasi);

- O'zbekiston Respublikasida muhofaza qilinayotgan tovar belgisiga bo'lgan huquqni o'tkazish to'g'risidagi shartnoma;

- O'zbekiston Respublikasida muhofaza qilinayotgan tovar belgisidan foydalanish to'g'risidagi litsenziya shartnomasi (sublitsenziya shartnomasi).

- ro'yxatga olingan elektron hisoblash mashinalari uchun dastur yoki ma'lumotlar bazasiga bo'lgan barcha mulkiy huquqlarni to'liq yoki qisman berish to'g'risidagi shartnoma;
- integral mikrosxemalar topologiyalariga bo'lgan huquqni to'liq yoki qisman o'tkazish to'g'risidagi shartnoma.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1034-moddasiga ko'ra intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositaga nisbatan mulkiy huquqlar egasiga ana shu intellektual mulk obyektidan o'z xohishiga binoan har qanday shaklda va har qanday usulda mutlaq qonuniy foydalanish huquqi tegishli bo'ladi. Huquq egasiga mutlaq huquq asosida tegishli bo'lgan intellektual mulk obyektlaridan boshqa shaxslarning foydalanishiga faqat huquq egasining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston intellektual mulk qonunchiligining xalqaro munosabatlar nuqtayi nazaridan muhim qismi respublika tomonidan imzolangan (ratifikatsiya qilingan) xalqaro hujjatlar va davlatlararo kelishuvlar sanaladi. Bugungi kunga qadar O'zbekiston intellektual mulk me'yorlarini jahon standartlariga muvofiqlashtirish uchun qator xalqaro hujjatlarni imzolagan (ratifikatsiya qilgan). Shu jumladan, O'zbekiston 1993-yilda Parij konvensiyasi, BIMT konvensiyasi va Patent kooperatsiyasi to'g'risidagi shartnoma, 1998-yilda Tovar belgisi huquqi to'g'risidagi shartnoma, 2001-yilda Budapesht shartnomasi, Strasburg kelishuvi va Nissa bitimi, 2005-yilda Bern konvensiyasi, 2006-yilda Lokarno kelishuvi, Madrid protokoli va Patent huquqi to'g'risida shartnoma, 2019-yilda Fonogramma konvensiyasi, BIMTning ijro va fonogrammalar to'g'risidagi shartnoma va BMTning mualliflik huquqi shartnomasi, 2022-yilda Marokash shartnomasiga va boshqa hujjatlarga qo'shilgan¹⁶.

Intellektual mulk sohasidagi shartnomalar turlari.

Intellektual mulk obyektlarining xilma-xilligi shartnomalar turlarining ham keng bo'lishiga sabab bo'ladi. Amaldagi qonunchilik va huquqiy amaliyotda quyidagi asosiy shartnoma turlari mavjud:

Litsenziya shartnomasi.

Litsenziya shartnomasi intellektual mulk sohasida eng keng tarqalgan shartnoma turi hisoblanadi. Unga ko'ra huquq egasi boshqa shaxsga intellektual mulk obyektidan foydalanish huquqini ma'lum shartlar asosida beradi. Litsenziya shartnomasi bo'yicha intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositaga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo'lgan taraf (litsenziar) boshqa tarafga (litsenziatga) tegishli intellektual mulk obyektidan foydalanishga ruxsatnoma beradi.

Fuqarolik kodeksining 1036-moddasiga ko'ra litsenziya shartnomasi litsenziatga quyidagilarni berishni nazarda tutishi mumkin:

intellektual mulk obyektidan, litsenziarning undan foydalanish huquqi va boshqa shaxslarga litsenziya berish huquqi saqlanib qolgan holda (oddiy nomutlaq litsenziya) foydalanish huquqini;

-intellektual mulk obyektidan, litsenziarning undan foydalanish huquqi saqlanib qolgan holda, biroq boshqa shaxslarga litsenziyani berish huquqisiz (mutlaq litsenziya) foydalanish huquqini;

qonunda yo'l qo'yiladigan boshqa turdagi litsenziyalarni.

Ushbu shartnomaning yana bir shakli sublitsenziya shartnomasi – bu litsenziyani oluvchi tomonidan intellektual mulk obyektidan foydalanish huquqini boshqa shaxsga berish to'g'risidagi shartnoma hisoblanadi. Litsenziyani oluvchi faqat litsenziya shartnomasida nazarda tutilgan hollarda sublitsenziya shartnomasi tuzishga haqli.

Qo'shimcha litsenziatning harakatlari uchun, agar litsenziya shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, litsenziar oldida litsenziat javobgar bo'ladi.

Intellectual faoliyat natijalarini yaratish va ulardan foydalanish to'g'risidagi shartnoma

FKning 1037-moddasiga ko'ra muallif intellektual faoliyat natijalarini yaratish va ulardan foydalanish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha kelgusida asar, ixtiro yoki boshqa intellektual faoliyat natijasini yaratish va o'zining ish beruvchisi bo'lmagan buyurtmachiga bu natijadan foydalanish uchun mutlaq huquqlar berish majburiyatini o'z zimmasiga olishi mumkin.

Ushbu shartnomada yaratilishi lozim bo'lgan intellektual faoliyat natijasining xususiyatini, shuningdek undan foydalanish maqsadlari yoxud usullarini belgilashi lozim.

Muallif zimmasiga ushbu muallif kelgusida yaratadigan har qanday intellektual faoliyat natijalaridan foydalanish uchun mutlaq huquqlarni birorta shaxsga berish majburiyatini yuklaydigan shartnoma, shuningdek, intellektual faoliyat natijalarini yaratish va ulardan foydalanish to'g'risidagi shartnomaning muallifning kelgusida muayyan turdagi yoxud muayyan sohadagi intellektual faoliyat natijalarini yaratishini cheklaydigan shartlari o'z-o'zidan haqiqiy emas deb topiladi.

Mualliflik shartnomasi.

Mualliflik shartnomalari asar yaratish, undan foydalanish, nashr etish, tarqatish va qayta ishlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu shartnomalar muallifning shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

FKning 1056-moddasida nazarda tutilgan mulkiy huquqlar faqat mualliflik shartnomasini tuzish yo'li bilan huquq egasi tomonidan boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkin.

Muallifning mulkiy huquqlarini boshqa shaxsga o'tkazish mutlaq huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi mualliflik shartnomasi asosida yoki mutlaq bo'lmagan huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi mualliflik shartnomasi asosida amalga oshirilishi mumkin.

Mutlaq huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi mualliflik shartnomasi faqat ushbu huquqlar o'tkazilayotgan shaxs asardan muayyan usulda va shartnomada belgilangan doirada foydalanishga ruxsat beradi.

Mutlaq bo'lmagan huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi mualliflik shartnomasi foydalanuvchiga asardan shunday huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazgan mutlaq huquqlar egasi va (yoki) bu asardan ayni shunday usulda foydalanish uchun ruxsat olgan boshqa shaxslar bilan teng ravishda foydalanishga ijozat beradi.

FKning 1068-moddasiga ko'ra mualliflik shartnomasida quyidagilar nazarda tutilishi kerak: asardan foydalanish usullari (mazkur shartnoma asosida o'tkaziladigan aniq huquqlar); asardan foydalanishning har bir usuli uchun to'lanadigan haq miqdori va (yoki) to'lanadigan haq miqdorini belgilash tartibi, uni to'lash tartibi hamda muddatlari.

Mualliflik shartnomasida asardan foydalanish huquqi qancha muddatga o'tkazilishi to'g'risida shart bo'lmagan taqdirda, shartnoma tuzilgan sanadan boshlab besh yil o'tganidan keyin, agar foydalanuvchi shartnoma bekor qilinguniga qadar kamida olti oy oldin bu haqda yozma ravishda ogohlantirilgan bo'lsa, shartnoma muallif tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Mualliflik shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim.

Patentga bo'lgan huquqni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi shartnoma.

FKning 1088-moddasida patentga bo'lgan huquqni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi (patentni berish to'g'risidagi) shartnoma yozma shaklda tuzilishi va vakolatli davlat

organida ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Uni yozma shaklda tuzishga yoki ro'yxatdan o'tkazish talabiga rioya etmaslik shartnomaning haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo'ladi.

Tovar belgisiga bo'lgan huquqni boshqa shaxsga berish to'g'risidagi shartnoma.

FKning 1106-moddasiga ko'ra, tovar belgisiga bo'lgan huquqni boshqa shaxsga berish to'g'risidagi yoki litsenziya berish haqidagi shartnoma yozma shaklda tuzilishi va vakolatli davlat organida ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

Intellectual mulkda shartnomaviy munosabatlarning amaliy ahamiyati

Intellectual mulk sohasida shartnomaviy munosabatlarning ahamiyati ko'p qirrali bo'lib, u quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, shartnomalar huquq egalariining manfaatlarini huquqiy jihatdan himoya qiladi.

Ikkinchidan, intellectual mulk obyektlarining qonuniy muomalaga kiritilishini ta'minlaydi.

Uchinchidan, shartnomaviy munosabatlar innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi va investitsion jozibadorlikni oshiradi.

To'rtinchidan, ular intellectual mulk sohasidagi nizolarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Natijada shartnomaviy mexanizmlar intellectual mulk bozorining samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi.

Intellectual mulk shartnomalarini takomillashtirish masalalari

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, intellectual mulk sohasida shartnomalarni tuzishda huquqiy bo'shliqlar va nizoli holatlar mavjud. Xususan:

- shartnoma predmetining noaniq belgilanishi;
- huquqlar hajmining aniq ko'rsatilmaligi;
- raqamli muhitda foydalanish masalalarining yetarli tartibga solinmaganligi.

Shu bois intellectual mulk shartnomalarini tuzish amaliyotini takomillashtirish, qonunchilikni zamonaviy talablarga moslashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, intellectual mulkda shartnomaviy munosabatlar zamonaviy huquq tizimining muhim institutlaridan biridir. Ular intellectual faoliyat natijalaridan foydalanishning huquqiy mexanizmini yaratib, mualliflar va boshqa huquq egalari manfaatlarini ishonchli himoya qiladi. Shuningdek, shartnomaviy munosabatlar innovatsion iqtisodiyot rivoji va raqobatbardosh bozor muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. (1996, oxirgi o'zgartirishlar bilan). Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasining 20.07.2006 yildagi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi O'RQ-42-son Qonun.
3. O'zbekiston Respublikasi. 2002-yil 29-avgust 397-II-son "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonun.
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 30.08.2001 yildagi 267-II-son "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida" Qonun.
5. Kurakin, A. A. (2021). *International Intellectual Property Law: Comparative Analysis*. London: Routledge.

6. Maskin, J., & Hargreaves, I. (2022). *Global IP Systems and Innovation*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. I.B.Yakubova. "Intellectual mulk huquqida TRIPS shartnomasining o'ziga xos xususiyatlari" TDYU-Monografiya. Toshkent-2025.
8. WIPO. *Guide on Intellectual Property and Contracts*.
9. Xalqaro intellektual mulk huquqi bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami.